

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo`l yozma huquqida

UDK: 809.51- 1 /-8

BBK:81.2-5 (5 кит)

M – 52

MINOVAROVA NODIRAHON SHUHRATOVNA

Xitoy tilida paxtachilik atamalarining lisoniy tadqiqi

5A 120102– Lingvistika(xitoy tili)

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dots. Saidazimova U.T.

Toshkent-2014

M U N D A R I J A

Kirish.....	7
I bob.Xitoy tilida termin, uning o`ziga xos hususiyatlari va paxtachilik terminlarining shakllanishi.	14
1. Xitoy tili terminologiya sohasi va terminlarning yasallishining grammatik usullari.....	18
2. Xitoy tili terminologiyasi struktur tuzulishi va ularning tiplarga ajralishi (paxtachilik terminlari misolida).....	21
3. Tarkibi qo`shma yoki murakkab so`z bo`lgan paxtachilik terminlari tahlili.....	26
Ibob bo`yicha xulosa.....	31
II bob. Paxtachilik terminologiyasining semantik klassifikatsiyasi.....	33
1.“Paxta” 棉花 <i>mian hua</i> atamasining tahlili va ushbu so`z ishtirokidagi boshqa atamalarning yasallishi.....	33
2. Paxtachilik atamalarining xususiy va umumiy guruhlariga ajralishi.....	40
3. Paxtachilik terminlarning semantik klassifikatsiyasida qo`llanilish doirasiga ko`ra aktiv va passiv guruhlari.....	44
II bob boyicha xulosalar.....	55
III bob. Paxtachilik terminlarining qo`llanish doirasiga ko`ra guruhlaridagi tahlili	57
1. Paxtachilik terminlarining semantik klassifikatsiyada tahlili	57
2. Paxtachilik terminlarini qo`llanish doirasiga ko`ra guruhlarining struktur tahlili	70
III bob bo`yicha xulosalar.....	76
Xulosa.....	78
Adabiyotlar ro`yhati.....	82
Ilova.....	86

Kirish

“O‘zbekiston Xitoy timsolida mamlakatimiz mustaqilligining birinchi kunlaridan bizni qo‘llab quvvatlab kelayotgan ishonchli, buyuk qo‘shni va hamkorni ko‘radi” deydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov.¹ Respublikamiz va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro do‘stona aloqalarimiz borgan sari keng rivojlanib bormoqda. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Xitoy Xalq Respublikasi bilan bo‘lgan aloqalar alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi va XXP o‘zaro do‘stlik va hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashdan manfaatdor. XXR iqtisodiy va harbiy salohiyatining rivojlanishi va tinchliksevarlikka asoslangan tashqi siyosati uning xalqaro aloqalardagi obro‘ e‘tiborining kuchayib borishida muhim omil bo‘lmoqda. Mamlakatlarimiz o‘rtasida 2006 yili do‘stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlari to‘g‘risidagi davlatlararo shartnomaning imzolanganini ikki tomonlama aloqalar tarixida muhim voqea bo‘ldi. Ushbu shartnoma hamkorlikni uzoq muddatli asosda rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi va 16 yil mobaynida imzolangan 200 ziyod o‘zbek – xitoy shartnomalarini izchillik bilan amalga oshirish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.²

Mamlakatimiz mustaqilligining yigirma yilligi arafasida shu kunga qadar erishilgan yutuqlarni sarhisob qilishga qaratilgan “Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” deb nomlangan yig‘ilishda Prezidentimiz Islom Karimov vatanimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlodning ta‘lim olish masalasiga ham alohida to‘xtalib o‘tdi. Bundan tashqari mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq Prezidentimiz tashabbuslari ostida yurtimizda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishga katta

¹ Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. Toshkent, “Sharq”, 2006. – B.242.

² Nosirova S.A. Hozirgi zamon xitoy tilidagi diplomatik atamalarining leksik – semantik va structural tahlili. Toshkent, 2007. – B.6.

ahamiyat berib kelingan. Bugun jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlik va hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilish ahamiyatini baholashning hojati yoqdir.³

Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishida do'stlik, hamkorlik hamda sheriklik munosabatlari to'g'risidagi davlatlararo shartnomaning imzolanganligi muhim omil bo'lib hizmat qilib kelmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlariday "O'zbekiston Respublikasi hozirgi kunda chet mamlakatlar bilan va aynan XXR bilan iqtisodiy aloqalarini tobora yaxshigilanayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda, shu bilan birga so'ngi ikki yil ichida ikki davlat orasidagi eksport- import munosabatlari sezilarli darajada o'sdi. Ushbu soxadagi ko'rsatgichlarning tobora ko'tarilishi avvalo, puxta ishlangan va uzoq muddatni ko'zlangan ikki tomonlama o'zaro shartnomalarning natijasidir"⁴

Ammo hozirgi xitoy tilidagi paxtachilik atamalarining lingvistik tahlili nafaqat O'zbekistonda, balki mashxur xitoyshunoslik ilmiy maktablariga ega bo'lgan Rossiya, AQSH, Germaniya, Angliya va boshqa rivojlangan davlatlarda ham amalga oshirilmagan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, Xitoy ilmiy adabiyotida ham ushbu sohaga bag'ishlangan ilmiy ishlar sanoqli. Qo'shni Xitoy bilan teng va o'zaro manfaatdorlikka asoslangan munosabatlarni taraqqiy ettirish zaminida, albatta xitoy tilini, hususan paxtachilik atamalarini va ushbu sohadagi maxsus leksika, terminlarni tilshunoslik nuqtai nazaridan chuqur o'rganish, ularni amaliyotda qo'llash katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur magistrlik dissertasiya ishi xitoy paxtachilik atamalarini tarjima qilish bilan bir qatorda ularni leksik-semantik tahlil qilish masalalariga ham bag'ishlangan.

³Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, 1997. – B.185.

⁴Cotton outlook., "Cotlook Limited" United Kingdom, 2010.- B 2

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkin, ushbu tadqiqot ishi nafaqat xitoyshunoslik, balki lug'atshunoslik sohasi uchun ham muhim ahamiyatga molikdir.

Tadqiqot ob'ekti va predmetining belgilanishi. Ishning ob'ekti qilib xitoy paxtachilik atamaları va paxtachilik sohasida keng uchraydigan so'zlar olindi. Ishning predmeti paxtachilik terminlarning leksik-semantik va struktur xususiyatlarini yoritish deb belgilandi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Mazkur magistrlik dissertasiyaishidan ko'zlangan asosiy maqsad xitoy paxtachilik sohasiga oid terminlar qishloq xo'jaligi uchun umumiy bo'lib, aynan ushbu sohada keng ishlatadigan so'zlarni alohida terminologik tizim sifatida o'rganishga qaratilgan. Qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib bir necha ustuvor vazifalarbelgilab olindi:

- xitoy tili terminologiyasi struktur tuzulishi va ularning tiplarga ajralishi paxtachilik terminlari misolida ko'rib chiqildi;
- paxtachilik atamaları xususiy va umumiy guruhlarga ajratildi;
- paxtachilik terminlarning semantik klassifikatsiyasida qo'llanilish doirasiga ko'ra aktiv va passiv guruhlari ajratildi;
- paxtachilik sohasi tarkibiy qismida uchragan atamalar o'rganildi;
- paxtaning ko'rinish va xususiyatini bildiradigan so'zlar tarjimasi ko'rib chiqildi;
- xitoy tilida paxtachilik atamalarining leksik – semantik tahlil qilib, terminlarining tahlil usullari va asosiy tushunchalari keltirildi;
- dehqonchilik, qishloq xo'jaligiga oid umumiy so'zlar paxtachilik terminologiyasi sifatida o'rganildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Mazkur tadqiqotni olib borishda xitoy, o'zbek, rus va ingliz umumiy tilshunosligi bo'yicha fundamental ishlar, lingvistika, semantika, funksional sintaksis, generativ grammatika, kognitiv lingvistika nazariyasi, lingvostatistika, qiyosiy tipologiya, neolingvistika, lingvistik strukturalizm, deskriptiv lingvistika, grammatikaga bag'ishlangan

ishlar, shuningdek atamashunoslik va terminologiya masalalariga doir adabiyotlardan, jumladan, Li De – Dzinning “外国人数用汉语语法”, Day – Syu-meyning “实用汉语语法三百点”, Guo Djenxuaning “简明汉语语法”, Chju De-sining “现代汉语形容词研究”, V. I. Gorelovning “Теоретическая грамматика китайского языка”, V.A. Kurdyumovning “Курс китайского языка: теоретическая грамматика”, V.M. Solnsevning “Очерки по современному китайскому языку”, A.A.Dragunovning “Исследования по грамматике китайского языка”, M.Sodiqovning “Hozirgi o`zbek tilida sifat”, Z.M.Magrufovaning “Степени сравнения прилагательных в узбекском языке” asarlaridaga ma’lumotlarga tayanildi. Xitoy tilini o`qish davomida to`plagan bilimlarimiz, bundan tashqari tadqiqotimiz yuzasidan xitoy tilidan o`zbek tiliga qilingan tarjimalar va tahlillar tadqiqotimizning amaliy asosini belgilaydi.

**Mavzu bo`yicha qisqacha adabiyotlar tahlili.** Mazkur tadqiqotni olib borishda xitoy, o`zbek, rus va ingliz umumiy tilshunosligi bo`yicha fundamental asarlar, atamashunoslik va terminologiya masalalariga doir adabiyotlardan, jumladan, O.S.Axmanova, Boduen de Kurtene, V. Brendal, G. Bakieva, A. N. Baranov, V.V.Vinokur, X.Dadabaev, A.V. Isachenko, I. M. Kobozeva, N.I.Kondakov, A.A.Karimov, A.A.Reformatskiy, Q.P.Sodiqov, V. Tomsen, N. Xomski, A.Hojiev, A.A.Karimov, S.A.Nosirova va boshqalarning ilmiy – nazariy qarashlariga tayanildi. Aynan paxtachilik sohasi bo`yicha esa asosan N.Mamatovning <sup>5</sup> ko`plab ilmiy izlanishlari va maqolalariga va “Cotton outlook” Cotlook Limited nashrlariga tayanildi.

Hozirgi kunda ToshDSHI xitoy filologiyasi kafedrasining o`qituvchilari tomonidan xitoy tilini o`rganishga bag`ishlangan ko`plab o`zbek tilidagi adabiyotlar, turli hil darslik, o`quv – uslubiy qo`llanmalar, lug`at va so`zlashgichlar nashr etilmoqda. Hususan, xitoyshunoslik bo`yicha

⁵Cotton outlook., “Cotlook Limited” United Kingdom, 2010, 2011, 2012, 2013.

M.H.Maxmudxojayev ⁶, A.A.Karimov ⁷, M.T. Kaunboyev ⁸, J. T. Ziyomuhamedov ⁹, S.A.Nosirova ¹⁰, S.A.Xoshimova ¹¹, L.A. Sultanova ¹² va boshqalar tomonidan qator ilmiy adabiyotlar yaratildi. Ushbu adabiyotlar biz talabalar uchun nihoyatda qimmatli ahamiyatga ega, chunki aynan o'zbek tilida nashr etilgan adabiyot va qo'llanmalarga bo'lgan ehtiyojimiz, aynan xitoy tilini o'rganishimizda juda yuqori. Lekin, xitoy tilining ayrim masalalari, jumladan paxtachilik atamalari masalasi alohida chuqur izlanishlarni talab qilib turgan dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Ishni o'rganish davomida to'plangan materiallar zamonaviy tilshunoslikda keng ko'lamda qo'llanib kelinayotgan tavsifiy, tahliliy, tarjima hamda taqqoslash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iboratki, xitoy paxtachilik atamalarining va paxtachilikga bevosita bog'liq bo'lgan so'zlarning semantik jihatlar, leksik xususiyatlari, ularning paxtachilik termin sifatida ma'no va tarjimalari tahlil etildi. Ushbu tadqiqotning amaliy ahamiyati sifatida materiallaridan xitoy tili leksikologiyasi, tarjimashunoslikga oid maxsus fanlarda, xitoy tiliga oid o'quv qo'llanmalar, lug'atlarda qolaversa o'zbek va xitoy paxta sanoati bilanshug'ullanuvchilar uchun keng foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Birinchi marta xitoy tili paxtachilik atamalarining leksik – semantik tahlili interpritatsiya, tahliliy, tavsifiy metodlari asosida amalga oshirildi. Xitoy tilidagi paxtachilik atamalari klassifikatsiyasi

⁶Махмудходжаев М.Х., Бекмуратов И.Н. Хитойёзуви.-Т.: “Матбуот”, 1990.42б.

⁷Каримов А.А. Хитойтилидаги хисобсўзлар: лексик-семантик, структурал ва функционал таҳлил. –Т.: Фан ва технологиялар, 2003.119 б.

⁸Каунбаев М.Т.Хитойча-ўзбекча лингвистик атамалар.-Т.:ТДШИ,1993.40 б.

⁹Зиямухамедов Ж.Т. Пе Сунлининг сеҳрли новеллалари (сюжетнинг келиб чиқиши ва ривожланиш масалалари): Филол.фан.номзод...дис.-Т.,2005.

¹⁰Носирова С.А. Ҳозирги замон хитой тили дипломатик терминларининг лексик-семантик ва структур таҳлили:Филол.фан.номзод...дис.-Т.: ТДШИ,2008.169 б.

¹¹Хашимова С.А. Ҳозирги хитой тилида редупликация: Филол.фан.номзод...дис.-Т.: ТДШИ,2009.161 б.; Хашимова С.А.,Носирова С.А. Хитой тили грамматикаси.- Т.,2011.180 б.

¹²Султанова Л.А., Зиямухамедов Ж.Т. Хитой тили.-Т.: Кудрат принт,2009.239 б.

asosida faol va passiv guruhlarini aniqlandi. Terminlar esa hususiyatiga ko'ra chegaralangan va chegaralanmagan turlarga ajratildi. Xitoy paxtachilik atamalarini paradigmatic jihatlari tavsifiy, tahliliy komponent metodlar asosida o'rganildi.

Dissertatsiya ishining ilmiy - tadqiqot ishlar rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Toshkent davlat sharqshunoslik instituti ilmiy - tadqiqot ishlari rejasi asosida bajarilgan. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat sharqshunoslik institutining Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan (2012 yil 29 noyabr, №4-sonli bayonnoma).

Dissertatsiya natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Mazkur magistrlik dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat. Har bir bob o'z mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda ichki qismlarga bo'lingan.

Birinchi bob da xitoy tilida termin va uning o'ziga xos hususiyatlari, xitoy tili terminologiyasi sohasi va terminlar yasallishining grammatik usullari haqida qisqacha bayon etilgan. Xitoy tili terminologiyasi struktur tuzulishi va ularning tiplarga ajralishi paxtachilik terminlari misolida ko'rib chiqildi. Tarkibi qo'shma yoki murakkab so'z bo'lgan paxtachilik terminlari qisqacha tahlil etildi.

Ikkinchi bob da paxtachilik terminologiyasining semantik klassifikatsiyasi ichki guruhlariga bo'lib o'rganildi. “ *Paxta* - 棉花 *mian hua* “ atamasining tahlili va ushbu so'z ishtirokidagi boshqa atamalarining yasallishi ko'rib chiqildi. Paxtachilik atamalarining xususiy va umumiy guruhlariga ajratilib misollar keltirilgan. Paxtachilik terminlarning semantik

klassifikatsiyasida qo'llanilish doirasiga ko'ra aktiv va passiv guruhlarga ajratilib, misollar tarjimalari bilan berilgan.

Uchinchi bob paxtachilik terminlarining semantik tahlili va tarjimadagi o'ziga xosliklariga bag'ishlangan bo'lib, xitoy tilida paxtachilik atamalarining leksik – semantik tahlili qisqacha ko'rib chiqildi, paxtachilik terminlarining tahlil usullari va asosiy tushunchalari va paxtachilik terminlarini qo'llanish doirasiga ko'ra guruhlarining leksik-semantik tahlili keltirilgan.

Har bir bob so'ngida va umumiy hulosada tadqiq etilgan materiallar tahlildan kelib chiqadigan asosiy natijalar, fikrlar bayoni berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida esa adabiyotlar yozilgan tiliga qarab tizimlashtirilgan bo'lib, avvalo o'zbek va rus tillaridagi manbalar, so'ng xitoy tilidagi adabiyotlar yozilgan tili alifbosi tartibida keltirilgan. Xitoy tilidagi adabiyotlar ro'yxati esa ularning o'qilish (pinyin) sistemasining alifbosiga ko'ra tizimlashtirilgan. Ro'yxat so'ngidan Internet manbalari keltirilgan.

Ilova qismida esa mavzu yuzasidan tayyorlangan qisqacha o'zbekcha – xitoycha paxtachilik atamalari lug'ati va paxta sanoatiga bog'liq ma'lumotlar keltirilgan.

I bob. Xitoy tilida termin va uning o`ziga xos hususiyatlari

Xitoy tilshunosligini va aynan lug`at boyligini o`rganishga bo`lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Xususan xitoy tili lug`at boyligining taraqqiyot yo`llarini o`rganish, uning tahlillariga bag`ishlangan ishlar ancha dolzarb hisoblanib, yosh tadqiqotchilarni ham o`ziga jalb qilmoqda.

“Termin (lat.), ya’ni atama fan - texnika, kasb - hunarning biror sohasiga hos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo`lgan so`z yoki so`z birikmasidir” . Yoki “Atama - mahsus ilmiy tushuncha ma'nosini ifodalovchi so`z yoki so`zlar birikmasidir”<sup>13</sup>. O. S. Axmanovanning fikricha, “atama mahsus tushunchalarni aniq ifodalash va hos narsalarni to`g`ri talqin etish maqsadida vujudga keltirilgan (qabul qilingan, o`zlashtirilgan) tildagi (ilmiy, texnikaviy va b.) mahsus so`z yoki so`zlar birikmasidir”.

Hozirgi zamon mantiqshunoslari “atama”, “termin” so`zi bilan birgalikda “term” so`zini ham qo`llashadi. Rus tilida “termin” va “term” tushunchalari mavjud bo`lsa, ingliz tilida ikkala ma'noni o`zida mujassam etgan “term” so`zi qo`llaniladi va bu so`zdan o`z navbatida yana bir necha boshqa ma'nolar kelib chiqadi. “Term” (ing. term , fr.terme, lot. terminus “chegara”, keyinroq – “ifoda”, “izoh”) bizni qiziqtirayotgan ma'noda inglizlar tomonidan “technical term” degan so`z birikmasi bilan ifodalanadi va so`z birikma ko`p hollarda “texnik atama” degan holda tarjima qilinadi. Aslida bu texnika atamasi emas, balki umumiy ma'nodagi atamani bildiradi. “Technical” sifat so`zi bu yerda grekcha “san'at, mohirlik, kasb - hunar” ma'nolarga yaqin bo`lgan ma'noda

¹³O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. “Davlat ilmiy nashriyoti ” -Toshkent , 2002.- B.165.

ishlatilgan. Shunday qilib, inglizcha “technical term” atamasi atamaning mahoratliyligi va nisbiy yo`naltirilganligini ko`rsatish uchun qo`llanilgan.¹⁴

Shunisi qiziqarliki, lot. “terminus” so`zining kelib chiqishi grekcha ma'nosi bilan bog`liq: 1.poyga maydonidagi ohirgi ustun; 2. chegara, kun. Lekin o`zining terminologik ma'nosiga bu so`z faqatgina lotin tilida ega bo`ldi:

1. mantiqiy (definision, nominativ) jihat (D.S.Lotte, V.P.Danilenko, T.L.Kandelaki): «Ma'lum bir tushunchalar sistemasida o`zining definisiyasini talab qiluvchi so`z yoki so`z birikmasi atama sifatida qabul qilinadi».

2. funksional (kontekstual) jihat (G.O.Vinokur, O.S.Axmanova, B.N.Golovin va b.): «Atamaning to`la ma`nosi faqatgina uning haqqoniy vazifasi, metasintaksisi orqali ochiladi».

Yuqoridagi ikki qarash ham ahamiyatga ega. Til bu murakkab, ko`p jihatli hodisa bo`lib, uni o`rganishda turli - xil qarashlar, fikrlar, xulosalar kelib chiqadi va demakki, turli - xil uslublar qo`llanilishini taqozo etadi .

Shu o`rinda bir savol tug`ilishi mumkin: “ so`z” va “ atama” bir narsami yoki har hil ma`nolarni anglatuvchilarmi? A.A.Reformatskiy ushbu masalaga bildirgan fikri quyidagicha: “Albatta, har bir atama bu so`z. Lekin har bir so`z atama emas. Agar so`z faqatgina atama sifatida qo`llanilayotgan bo`lsa, u holda uning “oddiy so`z” dan farqini qidirish befoyda. Biroq, ko`pincha, ma'lum - bir “so`z” goh atama bo`lib qoladi, goh atama bo`lmaydi. Atama ko`rinishiga ushbu so`zlar tuzilishi bilan moslashib oladi. So`z atamaga aylangach o`zining sinonimlik va antonimlik hususiyatlarini yo`qotadi”.¹⁵

Demak, atama so`z bo`la oladi, biroq har qanday so`z atama bo`la olmaydi. Chunki, eng avvalo, so`z o`zi izohlayotgan tushunchaning talabini, ehtiyojini to`la qondirib, u haqidagi ma'lumotni o`zida imkon qadar mujassam

¹⁴ Суперанская А.В., Общая терминология. – М. “Наука”, 1989. – В13.

¹⁵ Реформатский А.А. Мысли о терминологии //Современные проблемы русской терминологии. – М., 1986.- В 145

qilgan bo'lishi lozim. Aks holda u so'z so'zligicha qolaveradi. So'z atamaga aylangach atamaga hos bo'lgan hususiyatlarning vujudga kelishi tabiiydir. Shunday qilib, atama – so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, u imkon qadar bir ma'nolikka intiladi. Tilshunos olimlarning fikrlariga ko'ra, atama sinonimlik va antonimlik hususiyatlarga ega emas. Biroq ma'lum - bir tushuncha ayrim vaqtda bir nechta atama bilan berilishi mumkin.

Oddiy so'z uchun tashqi shakl muhim bo'lsa, atama uchun birinchi o'rinda uning mazmuni turadi. Shakl esa atama yaratilishining boshlang'ich paytida u qadar aniq bo'lmasligi mumkin. Bu atamaning umumiy leksikadan farqini belgilab beradi. So'z uchun uning jaranglashi, ya'ni tovushlar bilan ifodalanishi, mazmuni va nomlanilayotgan narsa-buyum o'rtasidagi bog'liqlik bir butunlik sifatida gavdalansa, atamada bunday butunlik kuzatilmaydi. Masalan, agar gap atamaning leksik yoki sintaktik bog'lanishlari haqida ketsa, atama bu o'rinda so'z sifatida qabul qilinadi, lekin atamaning tushuncha bilan bog'liqligi haqida gap ketsa, bu o'rinda atama so'zga qarama – qarshi qo'yilib, uning tushunchasi mahsus tushuncha sifatida umumiy tushunchaga zid bo'lgan tarzda qabul qilinadi. Bu esa o'z o'rinda «atama-tushuncha» va «atama-so'zlarni» farqlashni taqozo etadi. Atama-so'z va atama-tushuncha bir narsa emasligi har hil tillardagi bir fanning atama sistemalarini taqqoslashda namoyon bo'ladi, chunki bu tillarda bir tushuncha turli so'zlar bilan ifodalanadi.¹⁶

Shuyu 术语 “atama” atamasi “Cihai” nomli izohli lug'atda frazeologiya atamasiga nisbatan ishlatilgan bo'lib, uning tarkibiga maqollarni, matallarni, aforizmlarni, hikmatli so'zlarni, chengyu (frazeologizmlar) larni kirgizganlar.¹⁷

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan “atama” uchun umumiy ta'rif yo'qligi ko'rinib turibdi, desa bo'ladi. Turli kasb egalarida “atama” bilan bog'liq bo'lgan turlicha tushunchalar va yondoshuvlar vujudga kelgan. Masalan, mantiqiy atama

¹⁶ Nosirova S.A. Hozirgi zamon xitoy tilida diplomatik atamalarning leksik – semantik va struktural tahlili. - Toshkent 2007. - B.21

¹⁷ “Cihai” lug'ati. – Pekin, 1995. - B. 1572

deganda definisiyasi belgilangan har qanday soʻz tushinilishi mumkin. Atamani bunday tarzda qabul qilish Platon davrida qadimgi grek ilm-fan sohasida vujudga kelgan va bir necha ming asrlardan oʻtib kelgan. Faylasuflar atamani - definisiyalar qisqaruvi, deb tushunishadi va atama va definisi oʻrtasida “ = ” belgisini qoʻyishadi. Tilshunos – lingvist tomonidan bu oʻrinda “ = ” belgisi qoʻllanilmaydi, chunki atama – bu tushunchaning nomi, definisiya ushbu nomning keng qamrovli taʼrifidir. Lingvist baʼzi hollarda oʻzlashtirilgan soʻzni “atama” deb biladi, chunki tilning lugʻaviy tarkibida oʻzlashtirma “ oʻzga ” ligi bilan ajralib turadi.¹⁸

Atama – maʼlum vaziyatlarda qoʻllaniladigan fan va siyosiy ijtimoiy (kasbiy) faoliyatda qabul qilingan mahsus soʻz yoki soʻz birikmasidir. Atama – maʼlum doiradagi kasbiy bilimlarning tushunchalar sistemasiga kirgan tushunchaning soʻz bilan ifodalanishi. Atama – maʼlum maqsadga qaratilgan tilning eng asosiy tushuncha birligi, deyish mumkin.

Hozirgi kunda atamani uning qandaydir bir qatʼiy belgisini ilgari surgan holda, lingvistik izlanishlar obʼekti sifatida turli tomonlama sharhlash anʼanasi vujudga kelmoqda:

A.A.Reformatskiy fikriga koʻra, sof atamalar vazifasini ot turkumidagi soʻzlar bajaradi. Turli shakldagi atamalarga oʻz qarashini bildirayotganda u atamalar vazifasida ham oʻz til soʻzlari ham oʻzlashmalar, xalqaro soʻzlar, shuningdek sunʼiy (yasama) soʻzlar ham kelishi mumkinligini taʼkidlagan.

“Atama” shuyu 术语 soʻziga xitoy tilshunoslari tomonidan quyidagicha taʼrif beriladi: “Atamalar - bu fan – texnika sohasida qoʻllaniluvchi mahsus soʻzlardir. Fan – texnikaning har bir sohasi koʻplab atamalarni ishlatadi. Har bir atama esa fan – texnika doirasidagi mahsus maʼnoni ifodalaydi. Xitoy tilshunoslarining fikricha, atamaning oddiy soʻzdan farqi uning qoʻllanilish

¹⁸Суперанская А.В. Общая терминология. – М.: “Наука”, 1989. –В. 11.

doirasi cheklanganligi va aniq tushunchani ifodalaganidadir. Xitoy tilida ham atamalar sinonimiya, omonimiya va ekspressivlik sifatlariga ega emaslar.”¹⁹

Hozirgi zamon xitoy tili paxtachilik atamalarining rivojlanishiga davlatning ichki va tashqi siyosati, savdo va iqtisod, qishloq xo'jaligi, sarmoya, moliya, fan va madaniyat, transport, ekologiya va boshqa sohalardagi aloqalari, ayniqsa hozirgi kunda dunyo bo'yicha paxta yetishtirish bo'yicha birinchi o'rinda turganligi va XXR ning paxta sanoatini jadal rivojlanishi ham ta'sir etmay qolmaydi. Bu esa atamashunoslik sohasi uchun aktual va kompleks vazifalarni keltirib chiqaradi. Atamashunoslik yutuqlari, ba'zi xollarda ma'lum - bir davlatni milliy manfaatlarini ta'minlashda katta xizmat qiladi, ushbu maqsad uchun mustahkam zamin yaratadi. Shu bilan birga, atamashunoslik masalalariga yuzaki yoki e'tiborsiz qarash va yondoshuv, ma'lum bir davlat uchun uning xalqaro aloqalarida muammolar keltirib chiqarishi, ushbu davlatning milliy manfaatlariga katta zarar keltirishi mumkin.

1. Xitoy tili terminologiyasi sohasi va terminlar yasallishining grammatik usullari

Tilning lug'at tarkibida terminologiya qismi katta bir o'rinni egallaydi. Termin – ilm-fan va boshqa muayyan sohalarga oid tushunchalarning aniq atamasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasidir. Uning qo'llanilish doirasi shu soha bilan chegaralangan, lekin umumiste'moldagi so'zlar ma'lum bir sohaga oid tushunchani ifodalovchi so'z sifatida ishlatilishi, terminga aylanishi mumkin. Bunday hollarda u so'z dastlabki ma'nosi bilan umumiste'moldagi leksikaga, maxsus (terminologik) ma'nosi bilan esa terminologik (chegaralangan) leksikaga oid bo'ladi.²⁰ Terminlar bir ma'noli, tizimga solingan bo'lishi va emotsionallikka ega bo'lmasligi kabi belgilari bilan umumiste'moldagi so'zlardan farq qiladi.

¹⁹ 语言学名词解释。- 北京。商务印书馆，1960。B. 57

²⁰ Ҳоҗиева А., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбекадабий тили. – Тошкент, 1980. – В. 129

Xuddi shu singari xitoy tilida ham terminlar umumiste'mol so'zlaridan ajratiladi, bu haqida O.Frolova biologik terminlar misolida to'liq ma'lumotlar bergan, uning yozishicha, xitoy tili terminlarining uchta o'ziga xos xarakteri mavjud: semantik (bir ma'nolilik, aniqlilik, termin sifatida bir xil tushunish, terminning stilistik betarafligi), sintaktik (tizimga solinganlik) va pragmatik (terminning qo'llanilishga qulayligi, darajasi, qisqa va lo'ndaligi).²¹

So'z yasaliishi va terminlardan tashqari tarjimalar natijasida juda ko'p qo'llaniladigan tushuncha – bu so'z birikmasidir. So'z birikmasini hosil qiluvchi komponentlar (so'zlar) leksik mustaqilligini saqlaydi va ular o'rtasida sintaktik aloqa ham bo'ladi. So'z birikmasining qo'shma so'zdan farqi shundaki, qo'shma so'zning komponentlari morfema, so'z birikmasining komponentlari esa so'z bo'ladi.²² Bunday so'z birikmasi hamda qo'shma so'z kabi til birliklari xitoy tilida ham katta qiyinchiliklar bilan farqlanadi. Mana shu so'z birikmasi va qo'shma so'zni bir-biridan ajratishning bir qancha ko'rinishlari haqida V.I. Gorelov qisqacha to'xtalib o'tgan.²³ Mazkur ishni amalga oshirish jarayonida paxtachilik atamalarini ifoda etishda so'z birikmasidan keng qo'llanildi.

Xitoy tili terminologiyasi sohasidagi izlanishlar zamonaviy xitoy tili lingvistikasini o'rganishdagi ham qiziqarli ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi xitoy tili lug'at boyligini o'rganishda terminologiya sohasi eng murakkab sohalardan biridir. Shuning uchun ham terminologiya masalalarida o'zbek tili terminologiyasi bilan qiyoslab o'rgandik. Ma'lum bir terminologiya sistemasini o'rganishda o'zbek va xitoy tilida paxtachilik terminologiyasi o'ziga hosdir. Paxtachilik terminologiyasining boshqa guruh terminologik tizimlari, masalan qishloq xojalik, yengil sanoat terminologik tizimlari orasida tutgan mavqei va o'rnini tasavvur qilish uchun o'zbek va xitoy xalqlarining paxtachilik bilan qadim zamonlardan beri shug'ullanib kelayotganini va ayniqsa

²¹ Фролова О.П. Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка. - Новосибирск: Наука, 1981. - В. 130

²² Ҳожиёв А., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабийтили. –Т., 1980. -Б. 173

²³ Горелов В. И. Лексикология китайского языка. – М., 1984. - С. 11

so`ngi o`n yil davomida paxtachilik sohasining nufuzi tobora ortib borayotganini ko`rishimiz mumkin.²⁴

Har bir sohadagi yutuqlar uzviy ravishda shu soha terminologiyasira katta ta`sir o`tkazadi. Xitoy tiliterminologiyasi rivojlanishi va o`rganilishi davomida ilmiy yangilik va kashfiyotlar, bahsli muammolar, ijobiy o`zgarishlar albatta o`z aksini topadi. Terminologiya har bir sohada tegishli miqdordagi atamalarni o`z ichiga oladi va ushbu sohadagi barcha izlanishlar aynan bir soha terminologiya tizimini, uni paydo bo`lish va rivojlanishini o`rganish mumkinligini ko`rsatadi. Maxsus terminologik tizimlar, shu qatorda paxtachilik terminologiyasining paydo bo`lishi va rivojlanishi bevosita Xitoyning xalqaro aloqalari, iqtisodiyoti, qishloq xo`jaligi va shu kabi ko`plab sohalarining sezilarli yaxshilanib borayotganidan dalolatdir.

Ilmiy – texnikaviy bilimlarning jadal rivoji hozirgi kunda xitoy tili lug`at boyligini ham boyitmoqda. Aynan 90 % dan ortiq yangi so`zlar maxsus atamalardir. Terminlarning ortib borishi umumiste`mol so`zlarining ortib borishidan ancha ildam ba ko`pdir, shuning uchun ham maxsus leksikani o`rganish til rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu o`rinda B. N. Golovinning: “ Termin bu alohida so`z yoki so`z birikmasi bo`lib, maxsus mutaxassislar va maxsus kasb egalari uchundir. Masalan ilmiy, ishlab chiqarishga oid, savdo sotiqqa oid ”degan fikrini keltirib o`tishning o`zi kifoya.²⁵

Tilning grammatik hususiyatlaridan kelib chiqqan holda so`z yasalishi barcha tillarda turli xil usullarda amalga oshiriladi. Jumladan xitoy tilida so`z yasalishining kompozitsiya, affiksatsiya, abbreviatsiya, boshqa tillardan o`zlashtirish kabi usullari mavjud. Affiksatsiya, ya`ni qo`shimcha qo`shish

²⁴Cotton outlook – “ФактыХлопке“ Toshkent . 2013. –В. 4.

²⁵Головин Б.Н. , Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах.- М.: Высшая школа, 1987.- В. 109 .

orqali yasaladigan usul nisbatan kamroq uchraydi.²⁶ Xitoy tilida asosan ot, fe'l, sifat soʻz turkumlariga mansub boʻlgan soʻzlar yasaladi va ular quyidagi besh xil grammatik komponentlarning oʻzaro qoʻshilishi natijasida amalga oshiriladi:

- I. Atributiv model – bunda birinchi komponent ikkinchi komponentni aniqlab keladi hamda ular oʻrtasida aniqlovchi-aniqlanmish munosabatlari paydo boʻladi. Ushbu model yordamida ot soʻz turkumiga mansub boʻlgan soʻzlar yasaladi. Masalan, 没积生棉花 *meijisheng miánhuā* – “oʻlik paxta” 赤芍 *chìsháo* – “och qizil sallagul”
- II. Kopulyativ model – bunda komponentlar oʻzaro teng huquqli boʻladi va bu modelda asosan sinonim, antonim, uyushiq soʻzlar ishtirok etadi. Masalan: 增加 *zēngjiā* – “oshirmoq, orttirmoq, kuchaytirmoq”.
- III. Fe'l-ob'ektli model – birinchi ish-harakatni ifodalovchi komponent ikkinchi ot soʻz turkumiga mansub boʻlgan komponentga, ya'ni ob'ektga qaratilgan. Bu model orqali ot, fe'l soʻz turkumiga mansub soʻzlar hosil boʻladi. Masalan: 包装 *bāozhuāng*– “qadoqlash”.
- IV. Fe'l-natijaviy model – bunda birinchi komponent ish-harakatni ikkinchi komponent esa uni natijasini ifodalaydi. Bu modelda faqat fe'l soʻz turkumiga oid soʻzlar yasaladi. Masalan: 改善 *gǎishàn* – “yaxshi tomonga oʻzgarish”.

Sub'ekt-kesimli model – bunda birinchi komponent sub'ektni ikkinchi komponent uni harakatini yoki holatini bildiradi. Bu model

²⁶ Котелова Н.З. К вопросу о специфике термина.//Лингвистические проблемы научно – технической терминологии.// - М.: Наука, 1970.-В 143- 144

yordamida ot, sifat va fe'lga mansub soʻzlar yasaladi.²⁷ Masalan: 光敏 *guāngmǐn* – “yorugʻlikni sezuvchanlik”.

2. Xitoy tili terminologiyasi struktur tuzulishi va ularning tiplarga ajralishi (paxtachilik atamalari misolida)

Xitoy tili terminlarni asosan soʻz qoʻshish va affiksatsiya usuli orqali yasalgan soʻzlar va chet tillaridan oʻzlashgan soʻzlar tashkil etadi. Xitoy tilidagi barcha terminlar barchasi murakkab soʻzlar va soʻz birikmalaridir. Ular yuqorida taʼkidlab oʻtganimizday ikki guruh, yaʼni asosiy komponentlarning atributiv munosabatda yoki kopulyativ munosabatdaligiga qarab ajraladi. Ushbu ikki tipning yana bir farqi shundaki, kopulyativ munosabatda bir kategoriyaga kiruvchi komponentlarga ega boʻlishi mumkin, atributiv munosabatda esa qatʼiy qoida boʻlmasa ham komponentlar turli kategoriyaga mansub boʻladi.²⁸ Quyida atributiv va kopulyativ model orqali yasalgan terminlarni koʻrib chiqamiz. Ushbu terminlar xitoy tili grammatikasiga xos boʻlgan qoidaga, yaʼni termin tarkibidagi komponentlar qatʼiy ketma ketlikka rioya qiladi: aniqlovchi aniqlanmishdan oldin, toʻldiruvchi holdan keyin va hol egadan keyin keladi. Bu tartibning buzilishi termin maʼnosini oʻzgarishiga, tobe va hokimlikni buzilishiga olib keladi.

Xitoy tili terminologiyasi tuzulishi jihatdan yana quyidagi tiplarga ham boʻlinadi:

1. Aniqlash orqali bogʻlangan terminlar tipi
2. Natija orqali bogʻlangan terminlar tipi
3. Subyektiv- predikativ bogʻlangan terminlar tipi

Aniqlash, aniqlab keltirish orqali bogʻlangan terminlar tipi. Lyu Chjivey oʻzining “Словообразование в китайском языке” nomli ishida aniqlab kelish

²⁷ Семенов А. Л. Лексика китайского языка. – Москва., 2000. – С.39.

²⁸ Иванов В.В. Терминология и заимствования в китайском языке. М., Наука, 1973.- С.171.

orqali yasalgan murakkab soʻzlarning 5 turdagi struktur modellrini koʻrsatib oʻtadi:

- Ot+ot
- Sifat+ot
- Feʼl+ ot
- Son+ot
- Ravish+ot²⁹

Ushbu modellar ichida asosan yuqoridagi 4 turini keng uchratishimiz mumkin.

Murakkab soʻzlar orqali yasalgan va soʻz birikmalari orqali ifodalangan terminlarni tuzilishini koʻrib chiqamiz. Ushbu terminlarda komponent sifatida oʻzak morfemalarni olishimiz mumkin, ular predmetni, harakatni yoki uning sifatini belgilab kelishi mumkin.

Masalan, *土著 tuzhu* “ildiz” termini olib koʻrsak, birinchi morfema *土 tu* “yer” va ikkinchi *著 zhu* “aniq, maʼlum va bermoq” maʼnosidagi soʻzlaridan olingan. (- Ot+ot)

“*棉花品质 mian hua pinzhi*” “paxtaning sifati” termini, *棉花 paxta* va *品质* “harakter”, “sifat” maʼnolaridagi soʻzlardan olingan.

棉絮 mianxu – “qavilgan paxta, sirma” termini ikkita

棉 mian – “gʻoʻzapoya”

絮 xu – “qattiq, dagʻal, (paxtaga nisbatan), taralgan maʼnoli”

soʻzlardan iborat. Lekin istisno sifatida aynan shu termini biz iseʼmol qiladigan shirin paxta shirinligi maʼnosida ham qoʻllaniladi.

“*棉籽油 mianziyou* – paxta yogʻi” termini esa uch soʻzdan tashkil topgan:

1) *棉 mian* – “gʻoʻzapoya”

²⁹Лу Чживэй. Словообразование китайского языка. Пекин, 1964. –С.164.

2) 籽 *zi* – “ *urug` , mag`iz,`* ”

3) 油 *you* – “ *yog` “ so`zlaridan iborat.*

“ 送 风 机 *songfengji* – *havo purgagich(paxtachilikda` ), ventilyator`*termini esa:

送 *song* - “*yubormoq, jo`natmoq, yo`nalmoq`*”

风 *feng* – “*shamol`*”

机 *ji* – “*mexanizm`*” *so`zlaridan iborat.*

**Subyektiv- predikativ bog`langan terminlar tipi.** Ushbu tipda terminning birinchi qismi uning subyekti, ikkinchi qismi esa uning harakatini bildiradi. Ushbu tipdagi terminlar paxtachilik terminologiya sohasida kam bo`lsa ham uchrab turadi.

Yuqorida keltirganimizdek, so`z yasalişini 5 ta katta guruhga ajratamiz. Quyida paxtachilik terminologiyasida ushbu modellarni misollar orqali ko`rib chiqamiz.

Fe`l – obyektli modelda terminlar asosan konstruktiv jihatdan mustahkam bo`lmaganligi sababli komponentlar o`rtasidagi bog`liqlik yo`qoladi. Asosan ushbu modeldagi fe`llar va boshqa komponentlar alohida so`z ko`rinishiga kirib qoladi.

Kopulyativ model orqali yasalgan terminlarni yasalişini Semenas A.L. xitoy tili zamonaviy- siyosiy leksikasi materiallari orqali ko`rib chiqib, ushbu model orqali yasalgan terminlar xitoy leksikasining barcha sohalarida keng ishlatiladi degan hulosaga kelgan.<sup>30</sup> Kopulyativ model orqali yasalgan terminlar o`z tarkibiga ham fe`lli ham otli morfemalarni olishi mumkin. Ushbu modeldagi so`zlar o`zaro sinonim komponentlar yoki antonim komponentlar bo`lishi mumkin. Tadqiqot ishi jarayonida komponentlarning o`zaro antonim holatida bog`langan terminlarni biz uchratmadik.

³⁰Семенов А.Л. Лексика китайского языка.- М.“Муравей”, 2000.-В. 96

Natija orqali bog'langan terminlar tipi. Bu tipdagi terminlar komponentlari orasida natijaviy munosabat mavjud bo'lib, bunda birinchi komponent fe'l, ikkinchi komponent esa sifat yoki fe'l bo'lishi mumkin. Bunday so'zlar odatda fe'llar bo'lib, ular biron bir harakat natijasini bildiradi. "Natija orqali bog'langan terminlar maxsus terminlarga kirmaydi, chunki ular deyarli konversiya hodisasiga uchramaydi va ular grammatik strukturaga ega"³¹. Ko'p hollarda bunday umumiste'moldagi so'zlar terminologiya leksikasida keng foydalaniladi.

Masalan, quyidagi misollardagi fe'l turkumidagi so'zlar termin ma'nosida yetakchi ma'noni beradi.

1) 菜棉机 *caimianji* – *paxta terish mashinasi* : yetakchi ma'noli fe'l:

termoq

2) 送风机 *songfengji* – *havo purgagich* : yetakchi ma'noli fe'l: *yubormoq*,

bermoq

3) 喷雾器 *penwuqi* – *changlatgich* , *kukunlatgich* : yetakchi ma'noli fe'l:

sepmoq, kukunlamoq

4) 航空养肥 *hang kong yang fei* – *aviaoziqlantirish*; yetakchi ma'noli fe'l:

oziqlamoq, boqmoq

5) 航空喷雾 *hangkong penwu* - *aviachanglash* ; yetakchi ma'noli fe'l:

changlash

6) 打包机 *dabaoji* – *toy presslash*: yetakchi ma'noli fe'l: *presslash*

7) 吸收 *xishou* – *singmoq* , *amortizator* ; yetakchi ma'noli

fe'l: singdirmoq

8) 加速 *jiasu* – *tezlatmoq* , yetakchi ma'noli fe'l: *oshirmoq*

³¹Хаматова А.А. Словообразование современного китайского языка. Владивосток: Изд-во Дальневосточного ун-та, 1988.- С.224.

9) 驯化 xunhua – moslashmoq , akklimizatsiya, yetakchi ma'noli fe'l:

moslashmoq

10) 轮作 lúnzuò - almashlab ekish, yetakchi ma'noli fe'l: qilmoq

11) 第一收获 dì yī shōuhuò - birinchi terim, yetakchi ma'noli fe'l: termog

12) 一层耕地 yī ceng gendi - bir yarusli haydash, yetakchi ma'noli fe'l:

haydamog, yer haydamog

13) 放厩肥 Jiùféi - go`nglash, yetakchi ma'noli fe'l: sepmog, yoymog,

bermog

14) 把田变干净 Bǎ tián biàn gānjìng - dalani tozalash, yetakchi ma'noli

fe'l: alamashtirmog, o`zgartirmog

15) 变松地 Biàn sōng de - yer chopish , yetakchi ma'noli fe'l: bo`lmoq,

almashmog, o`zgartirmog

16) 耕地 gēngdì - yer haydash, yetakchi ma'noli fe'l: chopmog(yer),

haydamog

17) 大多开花 daduo kaihua - yoppasiga gullash, yetakchi ma'noli fe'l:

ochilmog

18) 出生果实 chusheng guoshi - meva tugish, yetakchi ma'noli fe'l:

tug`ilmog, tugmog

19) 品种互相的杂交 pinzhong huxiangde zajiao - avlararo chatishtirish ,

yetakchi ma'noli fe'l: chatishtirmog, qo`shmog

20) 零类型结枝实的 ling leixing jiezhishide – nol tipida shoxlash, yetakchi

ma'noli fe'l: bog`lamoq, termog, yaratmog

3. Tarkibi qo'shma yoki murakkab so'z bo'lgan paxtachilik terminlari tahlili

Terminlar komponentlari o'rtasida ma'lum bir semantik munosabat ham mavjud. Paxtachilik terminologiyasini ko'rib chiqqanimizda, terminlar ma'no mazmuniga ko'ra bog'langan ichki guruhlarni ham korishimiz mumkin.

Terminlar tarkibidagi tushunchalar orasida ma'lum bir semantik munosabat ham mavjuddir. Quyida o'zaro aloqador ma'nolarga ega terminologik sistemani ko'rib chiqamiz.

Ma'lum bir turkumga kiruvchi terminlarni bir tizimda joylashtirish mumkin. Birinchi guruh qilib, bir so'z ishtirokida boshqa terminlarni yasalishi, masalan,

棉包 *mianbao* – *paxta toyi*, bunda:

棉 *mian* - *g'o'zapoya* va **包** *bāo* – *o'ramoq, bog'lamoq, tugmoq, yo'rgaklamoq* va *o'ram, bog'ich, tugun* ma'nolarini bildiradi.

棉包箱 *mianbaoxiang* – *tortburchak toy* :

棉 *mian* - *g'o'zapoya*, va **包** *bāo* – *o'ramoq, bog'lamoq, tugmoq, yo'rgaklamoq* va *o'ram, bog'ich, tugun* va **箱** *xiāng* – *sandiq*,

滚包 *gunbao* – *presslangan toy*,

打包机 *dabaoji* – *toy presslash*,

打包棉花 *dabao miánhuā*, **包棉花** *bao miánhuā* – *tolani toylashva* boshqalar. Ushbu guruhda “toy” so'zi yetakchi so'zdir.

Ikkinchi guruhga “butundan – bo'lak” sxemasi orqali yasalgan terminlarni kiritishimiz mumkin. Masalan, “agroklimat - 农业气候 *nóngyèqìhòu*”, agro holatlardan biri, “**树皮茎** *shupíjīng* – *poya po'stlog'i*” ya'ni poyaning bir qismi.

Yana bir guruh qilib, ma'lum bir tuhuncha va undan yasalgan yoki tarbida mavjud va aynan shu so'z bilan bevosita ishlatiladigan terminlarni oilishimiz mumkin.

Masalan,

“纤维 xiānwéi – tola ” so'zi va undan

1) “棉花纤维 mian hua xiānwéi – paxta tolasi”termini tarkibi 4 mustaqil ma'noga ega :

棉 mian - g`o`zapoya

花 hua – gul

纤 xiān, jiān, qiàn – ingichka, nozik, ehtiyotkorona

维 wei – bog`lamoq, tugmoq, to`qimoq; bog`liqlik, so`zlaridan iborat.

2) “神经纤维 shen jing xianwei- asab tolasi ”termini ham :

神 shén – qalb; ruh, jon; zakovat

经 jīng; jìng – asos, asosiy

纤 xiān, jiān, qiàn – ingichka, nozik, ehtiyotkorona

维 wei – bog`lamoq, tugmoq, to`qimoq; bog`liqlik, so`zlaridan iborat.

3) 木纤维 mu xianwei - yogoch tolasi , lignosellyuloza termini:

木 mu – yog`och

纤 xiān, jiān, qiàn – ingichka, nozik, ehtiyotkorona

维 wei – bog`lamoq, tugmoq, to`qimoq; bog`liqlik, so`zlaridan iborat.

4) 粗制纤维 cu zhi xianwei - texnik tola termini :

粗 cū; cú – qattiq, dag`al, yirik

制 zhì - sistema, tizim, qator

纤 xiān, jiān, qiàn – ingichka, nozik, ehtiyotkorona

维 wei – bog`lamoq, tugmoq, to`qimoq; bog`liqlik, so`zlaridan iborat.

5) 血液纤维素 xueye xianweisu - biologik (fibrin) tola

血液 xueye - qon

纤维素 xianweisu- sellyuloza, fibrin:

纤 xiān, jiān, qiàn – ingichka, nozik, ehtiyotkorona

维 wei – bog`lamoq, tugmoq, to`qimoq; bog`liqlik so`zlaridan iborat.

6) 植物纤维 zhiwu xianwei - o`simlik tolasitermini:

植物 zhíwù – o`simlik, flora, ayrim terminlarda fito- old qo`shimcha sifatida

纤 xiān, jiān, qiàn – ingichka, nozik, ehtiyotkorona

维 wei – bog`lamoq, tugmoq, to`qimoq; bog`liqlik so`zlaridan iborat.

7) 合成纤维 hecheng xianwei - kimyoviy sintetik sun`iy tola termini:

合成 héchéng – tarkibtopmoq; sintetik

纤 xiān, jiān, qiàn – ingichka, nozik, ehtiyotkorona

维 wei – bog`lamoq, tugmoq, to`qimoq; bog`liqlik so`zlaridan iborat.

8) 纺织纤维 fangzhi xianwei - tekstil tola termini:

纺 fǎng – yigirmoq, ilmoq

织 zhī – tikmoq, to`qimoq

纤 xiān, jiān, qiàn – ingichka, nozik, ehtiyotkorona

维 wei – bog`lamoq, tugmoq, to`qimoq; bog`liqlik so`zlaridan iborat.

9) 人造纤维 renzao xianwei - suniy tola

人 ren – odam, inson, jins, nasl

造 zao – qurmoq, yasamoq, bajarmoq

纤 xiān, jiān, qiàn – ingichka, nozik, ehtiyotkorona

维 wei – bog`lamoq, tugmoq, to`qimoq; bog`liqlik so`zlaridan iborat.

10) 化学纤维 hua xue xianwei - kimyoviy (sintetik) tola

化 huà - o`zgarmoq, aylanmoq; tug`ilmoq

学 xué – o`qimoq, o`rganmoq, shug`ullanmoq

纤 xiān, jiān, qiàn – ingichka, nozik, ehtiyotkorona

维 wei – bog`lamoq, tugmoq, to`qimoq; bog`liqlik so`zlaridan iborat.

11) 黄纤维 huan xianwei - biologik sariq tola, sariq fibrilla

黄 huan – sariq

纤 xiān, jiān, qiàn – ingichka, nozik, ehtiyotkorona

维 wei – bog`lamoq, tugmoq, to`qimoq; bog`liqlik so`zlaridan iborat.

12) 纤维工业 xianwei gongye – to`qimachilik sanoati

纤 xiān, jiān, qiàn – ingichka, nozik, ehtiyotkorona

维 wei – bog`lamoq, tugmoq, to`qimoq; bog`liqlik

工 gong – ish, mehnat,

業 ye – ishlab chiqarish, korxona so`zlaridan iborat.

13) 纤维组织 xianwei zuzhi- tolali tarkib (masalan makkajo`xori poyasi)

纤 xiān, jiān, qiàn – ingichka, nozik, ehtiyotkorona

维 wei – bog`lamoq, tugmoq, to`qimoq; bog`liqlik

组 zǔ – birlik, blok, partiya

织 zhī - to`qimoq, yigirmoq, tikmoq so`zlaridan iborat.

14) 纤维植物 xianwei zhiwu – tolali o`simlik

纤 xiān, jiān, qiàn – ingichka, nozik, ehtiyotkorona

维 wei – bog`lamoq, tugmoq, to`qimoq; bog`liqlik

植 zhí - ekmoq, ko`paytirmoq, o`stirmoq

物 wù - narsa, buyum, predmet so`zlaridan iborat

